

## ***O'ZBEK FOLKLOR SAN'ATINING TARIXI VA SHAKLLANISHI.***

***„ Quralay " va „ Jayhun" folklor etnografik xalq ansamblining faoliyati.***

***Termiz Davlat Universiteti Milliy libos va san'at fakulteti 124-guruh talabasi***

***Go'zal Mardayeva Bozorovna.***

***Anotatsiya:*** O'zbek milliy folklor qo'shiqchiligi folklor musiqa asarlarining nodir namunalari, folklor musiqa san'atining kelib chiqish tarixi va rivojlanishi uning fan sifatida o'rganila boshlagani to'g'risida so'z yuritiladi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizga meros bo'lib qolgan betakror folklor asarlarini kelajak avlodlarga yanada rivojlantirib, sayqallab yetkazish ko'zda tutilgan. Folklor ansamblarini tuzish, tashkil etishdagi vazifalar, uslublar „ Jayhun " folklor -etnografik xalq ansamblining tashkil etilishi va „ Quralay" namunali bolalar folklor ansambli haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

***Kalit so'zlar:*** Folklor, xalq musiqasi, ananaviy musiqa, og'zaki ijod, merosxo'rlik, mahalliy qo'shiqlar, baxshichilik, to'y qo'shiqlari, etnomusiqashunoslik.

***Аннотация:*** Обсуждаются узбекское национальное фольклорное пение редкие образцы народно-музыкальных произведений история зарождения и развития народного музыкального искусства и начало его изучения как науки Он призван и дальше развивать и полировать уникальные фольклорные произведения созданные нашими предками и дошедшие до нас. Задачи и методы организации фольклорного ансамбля показаны на примере организации Джайхунского фольклорно-этнографического фольклорного ансамбля и организации образцового детского фольклорного ансамбля Куралай

***Ключовые слова:*** Фолклор народная музыка, традиционная музыка, устное слово наследие, местные песни, дарения свадебные песни, этномузыкология.

**Student of the 124th group of the Faculty of National Costume and Art of  
Termez State University**

**Guzal Mardayeva Bozorovna. History and formation of Uzbek folk art.**

**Activities of the folklore ethnographic ensembles "Kuralay" and "Jayhun".**

**Abstract:** Uzbek national folklore singing, rare examples of folk music works the history of the origin and development of folk music art and its beginning to be studied as a science are discussed. It is intended to further develop and polish the antique folklore works created by our ancestors and passed down to us. The tasks and methods of organizing a folklore ensemble are shown in the example of the organization of the „Jayhun" folklore ethnographic folk ensemble and the organization of the exemplary children's folklore ensemble „Quralay”

**Keywords:** Folklore, folk music, traditional music, spoken word, heritage local songs, giving, wedding songs, ethnomusicology.

Allomalarimiz xalq og'zaki ijodini millatning madaniy, ma'naviy va tarixiy merosining asosiy qismi deb bilishgan. Shuningdek adiblarimiz folklorni nafaqat san'atning bir qismi, balki xalqning milliy o'zligini urf-odat va qadryatlarini saqlash vositasi sifatida qadrlashgan. Allomalarimizdan Fitratning shunday so'zlari bor „Folklor xalqning madaniy xotirasi va ma'naviy merosidir" -deb ta'kidlagan. Folklor so'zi inglizcha „Folk- xalq, lore-donolik" ya'ni xalq donoligi, donishmandligi, hunarmandligi, san'atkorligi ma'nolarini anglatadi. Folklorni fan sifatida o'rganish XVII-asrda Angliya Universitetida yo'lga qo'yilgan. 1860-1870 yillarga kelib Rossiya Universitetlarida ham fan sifatida o'rganila boshlagan. 1920-yilda G'ulom Zafariy, Elbek, Muzayana Alaviylar viloyatlarga safarlar uyushtirib, folklor musiqa namunalari bilan to'plab borishgan. Xalq

og'zaki ijodi -folklor,qabila, urug', elat va xalqlarning milliy og'zaki badiiy adabiyoti sanaladi.Bilamizki, xalq og'zaki ijodi namunalari yillar mobaynida xalq orasida, ijtimoiy hayotida yuzaga kelib , shakllanib borgan.Xalq og'zaki badiiy ijodi og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan -shogirdga o'tib kelayotgan an'analar sanaladi. Biz bilamizki, xalq orasida o'zbek folklori namunalari sifatida topishmoq, maqol, singari janrlar ommoviy xarakterga ega. Doston, og'zaki drama,ertak, askiya kabi janrlarda profesional tayyorgarlikni talab etadi. Shu sababli o'zbek folklorida xalq ijodkorlarning professionallashuvi nihoyatda rivojlangan. Masalan baxshichilik, ertakchilar, askiyabozlar, qiziqchilar, dorbozlar ijrochiligi profesional san'at turi hisoblanadi. Folklor san'atida ijro usullari ya'ni yakkaxon ijro va jamoaviy ijro, soz va sozsiz ijroga ko'ra farqlanadi. Xalq og'zaki ijodida maqol, topishmoq , olqish, terma, naql, ertak, latifa, lof ,og'zaki drama, askiya, doston, baxshichilik janrlarini folklor san'atining yorqin namunalari sifatida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, folklor san'atida mavsumiy marosim qo'shiqlari ham mavjud bo'lib, unda asosan yilning to'rt fasliga oid mavsumiy marosim qo'shiqlari ijro etigan. Bunda insonlarning ijtimoiy hayotida bo'gan voqealari aks ettirilgan. Bahor kelishi bilan dehqon va chorvadorlarning dala ishlari boshlanadi. Bu albatta, mehnat jarayonlari bilan bog'liq hodisa, shu boisdan dehqonning dalaga urug' seoishidan tortib hosilini yig'ib olguniga qadar voqealar rivojini ko'rishimiz mumkin. Bahor faslida „Shox moylar“, „Navro'zi olam“,„Don sepdim“,„Sust xotin“ „Sumalak“ kabi xalq qo'shiqlari ijro etilgan. Yoz faslining kelishi bilan bilamizki, kunung issiqligi tufayli shamolni cgaqirish marosimi o'tkazilgan. Bu marosim „Choy momo " deb atalgan. Yilning kuz mavsumida esa,„ obbo baraka“, „ Mirhaydar bobo“ „ Galagov“ „Xo'p hayda" kabi qo'shiqlarni xalqmiz ijro etishgan. Yilning qaratonli qish faslida ham marosimlar o'tkazishgan. Bu marosimlar „Ya -Sun" va Gap-gashtak" deb nomlangan. Shuningdek, oilaviy-maishiy marosimlar ham mavjud bo'lib unda asosan „To'y marosimlari", Beshik to'ylari" „Xatna sunnat to'ylari" Nikoh to'ylari", „ Motam marosimlari o'tkazilgan.

### **„ Choy momo" marosimi.**

Uzoq yillar mobaynida ajdodlarimiz shamolga g'ayri tabiiy kuch qudratga ega bo'lgan jonli mavjudotsifatida munosabatda bo'lganlar. „Choy momo" marosimi ana shunday qarashlarining erkin ifodasidir. Marosim surunkali holda davom etgan qattiq shamollarni to'xtatish maqsadida o'tkazilgan. Marosimda ikkita kampir ustiga eski kiyimlardan kiyib, yuziga qora kuya surib, qo'lga bitta kaltakni ot qilib minib „ Choy momo " qo'shig'ini aytganicha qishloqning ko'chalarida aylanib yurishgan. Ularning ortidan esa 7-8 yoshli bolalar eshakka minib, xonadonlardan uy sohiblari bergan sadaqalarni xo'rjinga solib yurishgan.O'zbek folklor san'atida mehnat jarayonlaridan tashqari dehqonchilik, chorvachilik hamda hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar ham mavjud. Masalan dehqonchilik jarayonlarida „Qo'sh" „ O'rim" „Yanchim" „ Yorg'uchoq" kabi qo'shiqlar kiradi. Chorvachilik bilan mavjud qo'shiqlarga „ Ho'sh-ho'sh" „ Turey-turey"Chirey-chirey" misol keltirishimiz mumkin. Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlarga „ Kashta" „Charxim"„Bo'zchi" va O'rmak" qo'shiqlarini misol keltirishimiz mumkin.Folklor san'atida xalq afsunlari, badik va kinna turlari ham mavjud bo'lib uni folklorshunoslikda duo aytilari ma'nosida qo'llaniladi. „ Badik"- bu inson tanasiga qizilcha, eshak emi, suvchechak kabi toshmalar chiqanida aytiladi. „Kinna"- uhasad, suq, kek,o'ch, husumat kabi ma'nolarni anglatadi. misol uchun „ Kinna " qo'shig'ini aytib o'tamiz.

### **„ Kinna" qo'shig'i.**

Xa chiq badbah chiq, chiqmaganinga qo'ymayman, ko'zlaganing ko'zi bor.

So'zlagani so'zi bor.

Folklor san'atida bolalarga xos qo'shiqlar ham mavjud. Misol tariqasida „Quralay" folklor etnografik ansamblini keltirishimiz mumkin. Ansambl 1987-yilda Surxondaryo viloyati Boysun tumanida Qurbonov Sattor Xursandovich tomonidan dastlab to'garak shaklda tashkil topgan.1996-yili ansamblda Abdunabi Qodirov badiiy rahbar va Sojida Muxiddinova musiqa rahbari lavozimida faoliyat olib borgan. 1998-yil Toshkent shahrida bo'lib o'tgan „O'zbekiston-vatanim mening" Respublika ko'rik

tanlovida ishtirok etgan „ Quralay" bolalar folklor-etnografik namunali xalq ansambli 1999-yilda Xalqaro „Sharq taronalari " festevalida qatnashib festeval sovrindori bo'lgan.2001-yil, 2002-yil, 2003-yil,2004-yil, 2005-yillar Yunesko va Respublika madaniyat vazirligi tomonidan o'tkazilgan „ Boysun bahori" xalqaro ochiq folklor festevalida qatnashgan. 2006-yil „Diyor ohanglari" Respublika televizion festevalida , 2008-yilda esa „Asrlar sadosi" festevallarida muntazzam qatnashib kelgan. „Quralay" bolalar folklor - etnografik namunali xalq ansambli sahnalashtirgan asarlar; „ Muchal to'yi" „Dehqonbobo" „Shodiona" „Navro'z sayli" „ Yor-yor" „Sarbonbobo" „ Chillik o'yini" „Tol yog'ochdan to'yimiz" „Urchuq"„Aziz vatan"„ Mehmonjon" „ Kishtala bolajon" „ Tulki to'yi" „Bodini ko'rdim" „ Boychechak" „ Yomg'ir yog'aloq" kabi ko'plab qo'shiqlarni misol tariqasida aytishimiz mumkin. O'zbek folklor tarixini o'rganish folklorshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Folklor san'atini fan sifatida qo'llash samarali natija bera boshladi.

Xalq og'zaki ijodining so'z san'ati badiiy adabiyotning og'zaki shakli sifatida o'rganiladi. Bular Folklor musiqada baxshichilik san'atining rivoj topishi dostonlarning avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgani misol bo'ladi. Biz bilgan,, Alpomish " „Go'ro'g'lining tuyulishi"„ Ravshan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonlari ., „ Bulbuli go'yo " „Malikai Husnobod" „ Uch og'ayni botirlar " ertaklar, „ To'maris" va,, Shiroq " kabi afsonalar xalq og'zaki ijodining badiiy og'zaki shakli sanaladi. Folklor musiqa san'ati namunalarini to'plash, uni o'rganish va zamonaviy ijroga moslab xalq e'tiboriga xavola etish orqali milliylikimizni o'rganish ko'zda tutilgan maqsadlardan biri sanaladi.

### **Adabiyotlar**

1.S.X.Qurbonov -,„Folklor musiqa o'qitish metodikasi "Toshkent-,„Ilm ziyo zakovat.-2021 yil.

2.S.X. Qurbonov „Folklor musiqani o'zbek xalq san'ati tizimida o'qitish metodikasi. Termiz -2022.

3. S.X. Qurbonov „ Xor o‘qitish metodikasi " Toshkent. Ilm ziyo zakovat"- 2021 yil.

4.R.Tursunov „ Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti " Toshkent Ma'rifat - madadkor 2002 yil

5.O. Safarov -,„O‘zbek bolalar poetik folklori" Toshkent o‘qituvchi 1984-yil.